

# "O'zkimyosanoat" AJ ishchi guruhi mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar va ularning oilaviy sharoitlarini o'rgandi

// 14.05.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-ishchi-guruhi-mahallalarda-istiqomat-qiluv>



"O'zkimyosanoat" AJ ishchi guruhi mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar va ularning oilaviy sharoitlarini o'rgandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 37-sonli Farmonining 1-bandi ijrosi hamda mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi yig'ilishi bayonida belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash yuzasidan "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, shu kunlarda Jamiyat xodimlari Toshkent viloyati Parkent tumanidan birlashtirilgan "Kungay", "Nurobod", "O'choq", "Soy" va "Teman" mahallalarida bo'lib, u yerda istiqomat qilayotgan aholining oilaviy sharoiti va undagi muhitni atroflicha o'rganishdi. Fuqarolarni qiynayotgan muammolar tinglandi. Shu bilan birga, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish bo'yicha mahalla mas'ullari bilan hamkorlikda "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.



uzkiyosanoat



uzkiyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26





uzkiyosanoat



uzkiyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26











"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati